- Haydovchilarni umuman yengil oyoq kiyimlarida – tapochkalarida ishlash ham man etiladi, chunki yoz mavsumlarida tormoz pedali qizib ketadi. Shu sababli ayrim xollarda haydovchi pedalni bosa olmay qolib avariya qilib qo'yan voqealar ham bo'lgan, bu esa ko'plab yo'lovchilarni shikastlanishiga olib kelgan. Yuqorida qayd etib o'tilgan qonun, qaror va me'yoriy xujjatlarda yo'lovchi tashuvchilarga (mulkchilik shaklidan qat'iy nazar) yo'lovchilarni tashishda atrof muhitni saqlash, harakat va mehnat xavfsizligini ta'minlash, hamda yuklarni miqdorini, sifatini buzmaslikka, yo'lovchilarning sog'lig'iga, hayotiga putur yetkazmasdan tashishlarni tashkil etish vazifalari yuklatilgan. Bu masala O'zbekiston Davlat standartlarida ham o'z ifodasini topgan.

Xuddi shularga o'xshash talablar yo'lovchilar oldiga ham qo'yilgan:

- mast holda avtomobillarni minish;
- iflos libos-kiyimlar bilan va boshqa yo'lovchilariga zarar yetkazadigan qo'l bagaji bilan avtobus salonlariga, yengil avtomobillariga chiqishlari (minishlari) man etiladi.

Avtomobillar tog'li yerlarda ishlatilsa quyidagilar amalga oshiriladi:

- haydovchilar bilan qayta instruktaj o'tkaziladi;

-ularni trassa bilan shaxsan tanishtirish;
-tayanchiq, bashmak (g'ildiraklarni ushlab turuvchi to'siqlar), buksir qilish uchun qattiq ulangich (sepka)lar bilan butlangan bo'lishi shart.

XAYDOVCHINING SOG'LIGINI TEKSHIRISH.

Bunday tekshirish xaydovchining sog'lig'i hamda jismoniy xolati avtomobil xaydashga to'g'ri kelish kelmasligini aniqlash uchun o'tkaziladi. Xaydovchilar yoshlari va transport vositasining qo'yidagicha ko'rinishda o'tkazilishi lozim. Sig'imi 8 kishidan ortiq transport vositalarida ishlovchilar xar ikki yilda yoshi 60 yoki undan katta yoshdagi erkaklar va yoshi 55 va undan katta ayollar xar bir yilda bir marta tibbiy ko'rikdan o'tadilar. Bundan maqsad tashqari xaydovchilar xam xar smenada reys oldi tibbiy ko'rikdan o'tadilar. Bunday ko'rik xaydovchilarning sog'liqlarini tuzuk va tuzuk emasligini, ruhiy asabiy o'zgarishlarini aniqlash, shuningdek har xil kasalliklarni boshlanish bosqichlarini aniqlash maqsadida o'tkaziladi. Bunday ko'riklarda feldsher xaydovchi temperaturasini va qonning arterial bosimini o'lchaydi, tomir urishi chastotasini aniqlaydi. Ichkilik ichganlik alomatlari bor yoki yo'qligini tekshiradi va xaydovchidan o'zini qanday xis qilayotganligini so'rab biladi. Tibbiy nuqtai nazardan qarshi ko'rsatmalar bo'lmasa, xaydovchi yo'l varaqasiga feldsher "Reysga qo'yildi" shtampini bosadi. Agar xaydovchi vaqtincha mehnat qobiliyatini yo'qotganligi va ichkilik alomatlari sezilsa xaydovchi yo'lga qo'yilmaydi. Reys arafasida xushyorxonaga tushgan yo'lovchilar xam reysga qo'yilmaydi. Bunday xolatlarda "Reysga qo'yildi" shtampi bosilmaydi. Yo'l varaqasiga yo'lga qo'yilmaslik sababi ko'rsatiladi, agar xaydovchining ish qobiliyati yo'qligiga ichkilik sabab bo'lmasa, xaydovchi tabobatxonaga vrach qabuliga jo'natiladi. Agar ichkilik ichganligi alomati sezilsa, akt tuziladi va bu akt tegishli chora ko'rish uchun ATK raxbarlariga yuboriladi. Yo'l xarakati qoidalariga xalqaro konvensiyasiga muvofiq 9 yoki undan ortiq yo'lovchilar tashish uchun mo'ljallangan transport vositasi avtobus deb xisoblanadi. Amalda shahar avtobuslarini yo'lovchi singdirish qobiliyati 25-160 yo'lovchi atrofida. Avtobus kuzovining maksimal kengligi 2500 mm dan oshmaydi. Shu munosabat bilan avtobusning sig'imi asosan uning gabarit uzunligiga bog'liq. Hozirgi vaqtda 250 yo'lovchi sig'adigan 2 karra qo'shma kuzovchi shahar avtobuslarini yaratish texnik jihatdan mumkindir. Shahar avtobuslarining o'ziga xos xususiyatlari salonida yo'lovchilar o'tiradigan joylar miqdorining nisbati kamchiligidir, buning xisobiga turib ketadigan yo'lovchilar uchun joy ko'payadi, eshiklarni ko'pligi esa tez-tez keladigan bekatlarda yo'lovchilar xarakatini jadallashtirishga imkon beradi. Eshiklardan tezlikda yo'lovchilarni tushishi uchun to'plangan maydonchalarini mavjudligi ham avtobuslarni nominal sig'imini texnik xarakteristikasida ko'rsatilgan va 22815-88 davlat andozasiga ko'ra o'tiradigan o'rindiqlar soni bilan turadigan o'rinlar soni yig'indisi orqali aniqlanadi.

O't uchirgichlar, o't uchirish qurilmalari va mashinalari

O't uchirgichlar yong'inni boshlangich fazasida uchirish uchun ishlatiladi. Ular sig'imi, o't uchirish moddasi, o't uchiruvchi moddani chiqarish usuli bo'yicha turlicha bo'ladi.

Ximiyaviy ko'pikli o't uchirgichlar qattiq va suyuq moddalar yong'inni uchirish maqsadida foydalaniladi. Ularga OXP-10, OP-M va OP-9MM o't uchirgichlari kiradi. Ularning ishlash vaqti ko'pik karraligi 5 ga teng bo'lganda 60 sek. Ballonlar xajmi 8,7 va 9 l. Zaryadlari ishqorli va kislotali qismdan iborat. Ishqorli qismi – 450...460 gr. bikorbanat natriy va qizilmiya ildizi ekstraktining suvdagi aralashmasidan, kislotasli qismi – 15 gr. oltingugurt va 120 gr. dan ortiq oltingugurt kislotasining suvdagi aralashmasidan iborat. Bu o't uchirgichlarning korpusi foydalanilgandan 1 yil o'tgach 2 mPa bosim ostida sinaladi. (bir partiyadagi o't uchirgichlarning 25%). Ikki yildan keyin esa – 50%, uch yildan keyin esa 100% o't uchirgichlar sinovdan o'tkaziladi.

Sanoatda OV-5, OVP-10 markali kul o't uchirgichlari, OVP-100, OVPU-25 markali yukori karrali statsionar o't uchirgichlar ishlab chiqariladi. Ularni zaryadlashda PO-1 ko'pik hosil qiluvchidan foydalaniladi.

Uglekislotali o't uchirgichlar turli xil moddalar, materiallar va elektr qurilmalaridagi yenginni uchirishda ishlatiladi. Ularni zaryadlashda uglerod ikki oksididan (SO₂) foydalaniladi. Bunday o't uchirgichlarga OU-5, OU-8, OU-25, OU-80 va OU-400 markali o't uchirgichlar kiradi. Ular tortib ko'rib tekshiriladi. Agar ularning massasi 6,25; 13,35 va 19,7 kg dan kam bo'lsa (mos holda, OU-2, OU-5 va OU-8 o't uchirgichlari uchun) ular qayta zaryadlanadi.

Uglekislotali-brometilli o't uchirgichlarga OUB-3A va OUB-7A lar kiradi. Ularning hajmi 3,2 va 7,4 l bulib, brometil va uglekislota aralashmasi bilan zaryadlanadi. Bu markadagi qo'l o't uchirgichlarini ta'sir etish vaqti – 35 sek, uzatish uzunligi 3,0-4,5m.

Kukunli o't uchirgichlar OP-1, "Moment", OP-2A, OP-10A, OP-100, OP-250 va SI-120 markali bulib, ular uncha katta bo'lmagan yong'inlarni uchirishda ishlatiladi. OP-1 va "Moment" o't uchirgichlaridan avtomobillar va kuchlanishi 1000 V. gacha bo'lgan elektr qurilmalarida foydalaniladi.

OP-10A o't uchirgichi ishqorli metallardagi (natriyli, kaliyli) hamda yog'och va plastmassalardagi yong'inlarda ishlatiladi.

SI-2 ko'chma o't uchirgichi neft mahsulotlari, metalloorganik birikmalar va shu kabi boshqa moddalar yonishini uchirishda, SJB-50 va SJB-150 o't uchirgichlari tok ta'siridagi elektr qurilmalar yong'inni uchirishda xamda aerodrom xizmatidagi o't uchirish mashinalarini jixozlashda ishlatiladi.

Ishlab chiqarish binolari uchun talab etiladigan o't uchirgichlar soni quyidagicha aniqlanadi

$$n_o = m_o * S,$$

bu yerda S - ishlab chiqarish xonasining yuzi, m²;

m_o- bir m² maydonga norma buyicha belgilangan o't uchirgichlar soni.

Bu ko'rsatkich materiallar ombori, garajlar, chorvachilik binolari, bug'xonalar, tegirmonlar, oshxona va magazinlar uchun 100 m² maydonga 1 ta,

elektr payvandlash sexlari, temirchilik sexlari, laboratoriyalar uchun – 50 m² maydonga 2 ta qilib qabul qilinadi.

O't uchirish qurilmalari yong'inni boshlangich fazada to'liq bartaraf etish va yong'in bo'linmalari kelguncha yong'in tarqalishini cheklash maqsadida ishlatiladi. Ular statsionar, yarim statsionar va ko'chma bo'ladi. Zaryadlovchi moddalarning turi va tarkibiga kura esa suvli, bugli, gazli (uglekislota), aerosol (galoid uglevodorod), suyuqlikli va kukunli bulishi mumkin.

Bundan tashqari o't uchirishda ATS-30(66), ATS-40(131), ATS-40(130YE) markali mashinalar va MP-600, MP-900, BMP-1600 markali motopompalardan xam keng foydalaniladi.

Yong'inga qarshi suv ta'minoti

Yong'inga qarshi suv ta'minoti yilning istalgan davrida yong'in joyiga 3 soat davomida suv yetkazib berishi lozim.

Bino va inshootlardagi tashki yenginlarni uchirish uchun zarur suvning xisobiy sarfi ishlab chikarish kategoriyasi, binoning yenginga chidamlilik darajasi va binoning xajmiga boglik xolda tanlanadi.

Suv manbalari tabiiy yoki sun'iy bo'lishi mumkin. Tabiiy manbalardan ko'proq qishloq sharoitida foydalaniladi. Ular jumlasiga daryo, ariq, ko'llar va quduqlar kiradi. Yong'inga qarshi sun'iy suv xavzalari korxona territoriyasidagi yong'inga xavfli binolar oldiga, I va II darajali yong'inga chidamlilikdagi binolardan 10 m, III, IV va V darajali yong'inga chidamlilikdagi binolardan 30 m. uzoqlikda quriladi. Bitta suv xavzasining xizmat qilish radiusi yong'in avtonasoslari va avtotsisternalardan foydalanilganda – 200 m, ko'chma motopompalar va qo'l nasoslaridan foydalanilganda – 100 m, bir o'qli pritsepli motopompalar ishlatilganda – 150 m. kilib kabul kilinadi. Bitta sigimda suvning teginilmaydigan zaxira kismi 100 m³ gacha bulishi lozim.

Yong'inni uchirishni tashkillashtirish

Yong'inni uchirishni tashkil etish yong'inni uchiruvchi vositalarning mavjudligiga, ko'ngilli o't uchirish drujinachilari va yong'in qorovul muhofazasini tashkil etilganlik darajasiga, otryadlar o'rtasida ishni qanday tashkil etilganligiga bogliq bo'ladi.

Agar yong'inni uchirishda M-800A motopompasidan foydalanilsa xarbiy xisob ("boyevoy raschet") to'rt kishidan, ya'ni, otryad boshlig'i, motorchi va ikki o't uchiruvchidan iborat bo'ladi. M-1200 motopompasi ishlatilganda esa otryad olti kishidan: boshliq, motorchi va to'rt o't uchiruvchidan iborat bo'ladi. O't uchirish vaqtida xarbiy xisob quyidagi 5 otryadga bo'linadi :

1.Qidirish, tekshirish otryadi - yonadigan obyektni tekshirib, yong'inni uchirish ishlarini xamda odamlarni, mollarni va moddiy boyliklarni qo'qarish ishlarini bajarish ketma-ketligini belgilaydi.

2.Yong'inni uchirish otryadi - avtotsisterna ,motopompa va nasos bilan qo'rollangan xarbiy xisobdan tashkil topadi. U yong'inni uchirish va odamlarni qutqarish ishlarini bajaradi.

3.Suv bilan taminlash otryadi – yong'in nasosi, motopompa va boshqa o't uchiruvchi texnikalarni uzluksiz suv bilan taminlash uchun xizmat qiladi.

4.Himoyalash otryadi - yonadigan ob'yekt yonidagi boshqa obyektlarga yong'in o'tmasligini oldini oladi, ya'ni, yong'inni tarqalishiga qarshi ko'rashadi.

5.Qo'riqlash otryadi – material boyliklarni qo'riqlaydi hamda o't uchirish otryadiga yong'indan qo'tqarilgan boyliklar va chorva mollarini xavfsiz joyga evakuatsiya qilishda yordamlashadi.

Evakuatsiya yo'llari va chiqish yo'laklarini xisoblash

Yong'in vaqtida odamlarni va moddiy boyliklarni yong'in zonasidan evakuatsiya qilish eng muhim vazifalardan xisoblanadi.

Evakuatsiya vaqtining ro'xsat etilgan miqdori haroratni inson uchun xavfli kritik mikdoriga (600) yetishi, xavo tarkibida kislorod miqdorini kamayishi, xonani tutun bosib, ko'rinish darajasini susayishi va zaharli moddalarni xosil bo'lish vaqti orqali belgilanadi. Zarur evakuatsiya vaqtida odamlarni xarakatlanish tezligi - 16 m/min, zinadan pastga xarakatlanish tezligi- 10 m/min., yo'qoriga xarakatlanishi-8 m/min. atrofida bo'ladi. I va II darajadagi yong'inga chidamlilikdagi binolardan evakuatsiya qilish vaqti- 6 minut, III va IV darajadagi binolardan-4 minut, V darajadagi binolardan- 3 minut qilib qabul qilinadi. Bolalar muassasalari uchun bu vaqt 20% kam qilib belgilanadi.

Atrof muhit muhofazasi

ATROF MUHIT MUHOFAZASI.

Hozirgi kunda atrof-muhit muhofaza qilish va ekalogik masalasi eng katta muomolardan biri bo'lib hisoblanadi. Ekalogiya va atrof-muhit muhofazasi butun dunyo jamoatchiligi diqqat markazida bo'lib, katta nufuzli tashkilotlar shu ustida ish olib bormoqda. Keyingi paytlarda fan ilm-texnika, ishlab chiqarish sanoati va halq xo'jaligining boshqa tarmoqlari tez rivojlanishi tufayli atmosfera va atrof muhitga turli hil zararli gaz va sanoat chiqindilari chiqarilmoqda. Bu esa tabiiy sharoitni o'zgarishiga o'simlik va hayvonot dunyosini kamayib borishiga, iqlim sharoitlarini o'zgarishiga qolaversa inson hayoti uchun salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Bu barcha ilmiy muhandis texnik hodimlar, katta davlat arboblari va huquq organlari, qolaversa butun insoniyat oldida atrof muhit muhofazasi, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, zararsiz ishlab chiqarishni joriy etish, kelajak avlodlarga barcha ne'matlarni to'g'ri va toza yetkazib berish tadbirlarini ko'ndalang qo'yadi.

Atrof-muhitga zararli chiqindilarni chiqaruvchi sanoat korxonalari orasida avtotransport korxonalrining ham ulushi kattadir.

O'zbekiston davlatimizda aktual ekalogik muommolarni tahlil qilib chiqsak, bu muommolarni paydo bo'lishi va rivojlanishi suv, yer, biologik resurslardan noto'g'ri foydalanish hamda iqlim, tarixiy sotsial iqtisodiy sharoitlardan kelib chiqadi. Hozirgi kunda respublikamizda eng katta regional ekalogik muommolardan biri bu orol dengizi muommosi bo'lib, butun dunyo jamoatchiligi diqqatida turibdi.

Avtotransportning atrof-muhitga ta'siri respublikamizda ham to'laligicha o'rganilmagan. Aniq va ishonchli tassavur olish va muommolarni yechish mutaxasis va olimlarimiz tomonidan katta izlanishlarni talab qiladi.

Har doim o'sib borayotgan avtomobil parki insoniyatga faqatgina qulaylik va kamfort olib kela qolmay balki ekalogiya bo'yicha ko'p muommolarni keltirib chiqarmoqda.

Bular yo'l transport hodisalari, atrof muhitni ifloslantirish, yer maydonlarini egallab turish va boshqalar.

O'zbekistonda yer resurslaridan unumli foydalanish iqlim, suv, biologik resurslarni va ularning murakkab tarkibiga tayangan.

Avtomobillarni salbiy oqibatlarini butunlay yo'qotib yuborish mumkin emas. Shuning uchun katta chegaralash va mumkin qadar sozlash lozim.

Insoniyat hayoti uni o'rab turgan tabiiy muxit bilan uzviy bog'liq bo'lib, buni tasdiqlaydigan manbalar har qadamda uchrab turadi.

Johon ko'lamida jadal suratlar bilan kechayotgan fan texnika inqilobi odamlarning mehnat sharoiti, turmush darajasi yaxshilanishiga ijobiy ta'sir etishi bilan birga u tug'dirgan ekalogik o'zgarishlar, o'z navbatida insoniyatga, uni o'z bag'rida saqlayotgan ona tabiatga asoratli ta'sir ko'rsatmoqda.

Fan – texnika inqilobi sharoitida tabiat boyliklaridan keng miqyosida foydalanish hamda ator-muhitni ifloslantiruvchi sanoat va maishiy chiqindilarning ortishi insonning tabiatga ko'rsatayotgan umumiy salbiy ta'sirini keskin kuchaytiradi. XX asrning ikkinchi yarmida tabiatni muxofaza

etish global muommoga aylandi. Insoniyat madaniyati va sivilizatsiya taqdiri xuddi ana shu muommoni hal etishga ko'p jihatdan bog'liqdir. Tabiatning sofliigi uchun kurashishiga keng mexnatlashlar ommasi talab etilmoqda turli jamoat tashkilotlari tashkil etilmoqda. Ularning a'zolari turli ideallarni targ'ib etishib, ularning barchasi sayyoramizdagi hayot uchun ma'sul ekanini chuqir anglashadi va shuning uchun ham uni, ular faol himoya qilishga hamisha tayyordirlar.

Prezidentimiz I.A.Karimov ekologik muommo to'g'risida so'z yuritib, "Ekologik xavfsizlik muommosi allaqachonlar milliy va mintaqaviy doiradan chiqib, bugin insoniyatning umumiy muommosiga aylangan" degan edi.

Transnort vositalarining ekologik jihatidan xavfsizligi deganda, ularning atrof muhitga va insonlar sog'ligiga zararli ta'sirin kamaytirishga qaratilgan xususiyatlar va tadbirlar majmuasi tushuniladi.

Hozirgi paytda transport vositalaridan ajralib chiqayotgan zararli chiqindilarning atmosferaga tarqalishini kamaytirish eng dolzarb muammolardan biriga aylandi.

Zaharli chiqindi gazlarning atmoareraiga tarqalib ketishini kamaytiruvchi bir qancha usullar, tadbirlar va konstruktiv yechimlar manjud bo'lib, ular orqali ekologik xavfsizlikni taminlash katta mablag' va uzoq muddat davom etadigan jarayonni talab etadi.

Bizning fikrimizcha transnort vositalari bilan bog'liq ekologik muammolarni hal qilishning uchta asosiy yo'nalishi mavjud:

- 1.Yonilg'ining sifatini oshirish va uning boshqa turlaridan foydalanish;
- 2.3axarlilik darajasi kam bo'lgan dvigatellarni qo'llash;
- 3.Zaharli chiqindilarni zararsilantiruvchi moslamalarni yaratish;

Ushbu chora tadbirlarning shu paytgacha ma'lum bo'lgan ayrim yechimlari 1-rasmda ko'rsatilgan.


Yonilg'ining istiqbolli turlari xisoblangan sintetik spirtlar (metanol va etanol), ammiak va vodorod gazlarining ishlatilishi tufayli chiqindi gazlarning zaharlilik darajasi 2-3 marta kamayadi.

Ayniqsa vodorod yuqori energiyaga ega bo'lib, atrof - muhitga deyarli zarar yetkazmaydi. Vodorodni suvdan termik yoki elektrolitik usul bilan ajratib olish mumkin. Vodorod qo'llangan dvigatelning siqish darajasi kamayadi va avtomobilning tortish tezlik xususiyati biroz pasayadi. Bundan tashqari vodorod benzindan ancha qimmat turadi, yonib ketish va portlash xavfi yuqori xamda suyuq vodorod saqlanadigan idish hajmi benzin idishidan 3-4 marta kattaroq joyni egallaydi. Shunga qaramasdan ushbu yonilg'i dvigatel detallarning yeyilishini va moy sarfini kamaytiradi.

Gazsimon siqilgan va suyultirilgan gazlarning ekologik va iqtisodiy jixatidan samaradorligi ilmiy jihatdan isbotlangan.

Ular benzinga nisbatan 2,5 – 3 barobar arzon bo'lib, zaharli gazlar; uglerod okoidi 4-5, azot oksidi 1,5-2 va uglevodorodlar 1,1-1,4 barobar kam ajralib chiqadi. Kamchiligi shuki, dvigatel quvvati 7...12% kamayib ketadi va yuqori xavfsizlik chora – tadbirlarga rioya etishni talab etadi.

Benzin yonilg'isi tarkibiga qo'shiladigan marganets asosidagi STM antidekator qo'rg'oshiga qaraganda 50 marta kam zaharli. Uning yonilg'i tarkibidagi 2% qo'shilmasi A-76 benzini oktan sonini 5-7 birlikka oshiradi.



1- rasm. Ekologik muammoni hal etish sxemasi.

foydalanish natijasida chiqindi gazlar tarkibidagi uglerod oksidi 2 marta kamayadi. Biroq suvni emulsiya ko'rinishida saqlash, ayniqsa past xaroratlarda katta qiyinchiliklar tug'diradi.

Dizellarda setan soni yuqori bo'lgan yonilg'idan foydalanish azot oksidi va uglevodorodlarning ajralib chiqishini kamaytiradi.

Ekologik jihatdan bir qadar zararsiz bo'lgan gaz turbinali va rotor dvigatellar boshqa bir qator kamchiliklari tufayli avtomobillarda kam qo'llanilmoqda. Jumladan, ularning tannarxi yuqori, yonilg'ini ko'p sarflaydi, yuqori quvvatga sekin ko'tariladi, korpus elementlarining zichlanishi ta'minlanmagan va hakazo.

Gibrid dvigateli ikkita mustaqil energiya manбайдan (ichki yonuv dvigateli va elektrodvigel) tashkil topgan bo'lib, ikki rejimda (shahar tashqarisi va shahar ichida) ishlaydi. Ushbu tadbir gazlarning zaharliliigi va shovqinni qisman yo'qotish (elektrodvigel rejimida) chorasini hal etadi. Biroq qo'shaloq dvigel konstruksiyasi ancha murakkab va ishlab chiqarish tannarxi yuqori.

Elektromobillarda yonilg'i ishlatilmaganligi tufayli atrof-muhitga deyarli zarar yetkazilmaydi, past shovqin bilan ishlaydi va qulay boshqariladi, tortish xususiyatlari xam nchki yonuv dvigateliga qaraganda yaxshiroq bo'lib, murakkab transmissiyani talab etmaydi, biroq elektr energiyasini ishlab beruvchi manbaning yo'qligi uchun bunday avtomobillar kam ishlab chiqarilmokda.

Inersiya hosil qiluvchi mahoviklardan foydalanish ham ekologik zararsizlikni ta'minlaydi, lekin faqat maxovikning kinetek energiyasi avtomobilni uzoq masofani bosib o'tishga imkon bermaydi.

Dvigatel silindrlaridan ajralib atmosferaga chiqib ketishi lozim bo'lgan chiqindi gazlarning zaharlilik darajasini kamaytirish yoki ularni qo'shimcha moslamalar yordamida ushlab qolib, keyin zararsizlantirish muammosi turli xil yo'llar bilan hal etilmoqda. Jumladan, so'ndirgichdan oldin katalitik neytralizatorning qo'llanilishi uglerod oksidini 80 % ga, azot oksidini 30 % ga, uglevodorodlarni esa 70 % ga kamaytiradi. Katalizatorlar sifatida palladiy, radiy, ruteniy, mis oksidi, xrom va nikel oksidlari ishlatiladi.

Bundan tashqari, ishlatilgan gazlarni kiritish trubasiga qaytarish (retsirkulyatsiya) ham azot oksidini 2 marta kamaytiradi.

Yuqorida qarab chiqilgan barcha chora tadbirlar qaysidir jihati bilan cheklanganligi uchun, ulardan bevosita transport vositalarinig kunlik ekspluatatsiya jarayonlarida foydalanib bo'lmaydi.

Shuning uchun ham, avtomobillarning kun sayin yangilanib turgan va eskidan ishlatilib kelinayotgan modifikatsiyalaridan samarali foydalanish uchun ularning ekologik xavfsizligini bevosita transport jarayonida ta'minlash amaliy jihatdan muhimdir.

Buning uchun shahar ichidagi serqatnov ko'chalarda turli-xil rejimlar bilan xarakatlanuvchi transport vositalari dinamik xususiyatlarining ekologik ko'rsatkichlarga ta'sirini ilmiy jixatdan o'rganish natijasida qaysi bir tadbirni qo'llash ko'proq samara berishni aniqlab beradi.

Xulosa

Xulosa

Men bitiruv malakaviy ishimda Qamashi - Yakkabog' yo'nalishi bo'yicha avtobusda passajirlar tashishni tashkil qilish mavzusi berilgan edi.

Men mana shu mavzu asosida bitiruv oldi amaliyoti va bitiruv malakaviy ishini bajarish davomida "Qamashi - Yakkabog'" yo'nalishi bo'yicha qatnayotgan transport vositalarining harakatlanishini o'rganib hisobiy ishlarini amalga oshirdim.

Isuzu avtomobili zamonaviy avtomobil bo'lib yo'lovchilar uchun barcha qulayliklarga ega.

Isuzu avtomobilining xarakatlanishi davomida tez yurishi, yonilg'i tejamkorligi, yo'llarda xarakatlanish havfsizligiga javob berishi bilan ajralib turadi.

Ushbu hisobiy natijalar bo'yicha grafik chizma qismlarini ishlab chiqdim. Bunda dastlab xarakatlanish tasviri bo'lib bu tasvirda "Qamashi - Yakkabog' " yo'nalishining yo'l xaritasi keltirilgan.

Ikkinchi chizmada texnologik hisoblashlar uchun kerak bo'ladigan dastlabki ma'lumotlar keltirilgan.

Uchinchi chizmada texnologik hisoblashlarning natijalari keltirilgan bo'lib, undan yo'nalishni tashkil etishda foydalaniladi.

To'rtinchi chizmada yo'nalishda yo'lovchi tashishning tannarxi xarajatlari keltirilgan bo'lib, u 201.7 so'mni tashkil etadi.

Beshinchi chizmada yo'nalishning texnik iqtisodiy ko'rsatgichlarining hisobi natijalari keltirilgan bo'lib, yillik foyda- **3085137046** so'mni, rentabillik ko'rsatgichi esa 234.1 % ni tashkil etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

ADABIYOTLAR

1. Karimov I.A. “Barkamol avlod yili” davlat dasturi - T.:O‘zbekiston, 2010.- 80 b.
2. Karimov I.A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O‘zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo‘llari va choralari. -T.: 2009.-94 b.
3. Karimov I.A «O‘zbekiston buyuk kelajak sari», T., 1998 y.
4. Qurbonov SH. va boshqalar. Barkamol avlod orzusi. (Kadrlar tayyorlash milliy dasturini amalga oshirishi borasidagi publisistik mulohazalar) Toshkent, - Sharq,1999-yil.
5. Крамаренко Г.В. «Автомобиллarga texnikaviy xizmat ko‘rsatish», Toshkent-1998-yil.
6. «O‘zbekiston Respublikasi avtomobil transporti harakatdagi tarkibining texnik xizmati va ta’miri haqidagi Nizom» Toshkent, «O‘zavtotrans» korporasiyasi 1998-yil.
7. O.X.Xamraqulov, O.Adilov, T.Abduazizov, M.Raxmatullayev
«Bitiruv malakaviy ishini» bajarish bo‘yicha o‘quv qo‘llanma. Jizzax 2005 y.
8. Наполский Г.М. «Технологическое проектирование АТП и СТО» учебник для вузов. Москва, Транспорт, 1985-год.
9. Афанасев Л.Л. и др. Гаражи и станции технического обслуживания автомобилей. Москва, Транспорт. 1980-год.
10. Положение о техническом обслуживании и ремонте подвижного состава автомобильного транспорта Республики Узбекистан -Ташкент: корпорация «Узавтотранс»- 1996 г.
11. Б.Н.Суханов, И.О.Порзух, Й.Ф.Берарев «Технологическое обслуживание и ремонт автомобилей», пособие по дипломному проектирований. М. Транспорт, 1991г. стр 67..77.

12. Салов А.И. «Охрана труда на предприятиях автомобильного транспорта». Учебник для студентов автомобильных вузов, 3 изд., переработанная и доп. М, Транспорт 1985г.
13. О.Н.Намракулов, Ш.П.Магдиев, Т.Абдуазизов, М.Рахматуллаев, О.К.Адилов, Transport vositalarini ishlatish va ta'mirlash yo'nalishi talabalari uchun Bitiruv malakaviy ishini bajarish bo'yicha o'quv qo'llanma, JizPI 2005 yil.
14. Siddiqnazarov Q, Musajonov M, Asatov E, Qodirshoyev T, Xamraqulov O va boshqalar «Transport vositalari korxonalarining ishlab chiqarish texnika bazalari» Transport vositalarini ishlatish va ta'mirlash yo'nalishi talabalari uchun o'quv qo'llanma, TAYI 2005 yil.
15. Сайдаминов С.С. Решение вопросов охраны окружающей среды в курсовом и дипломном проектировании, Учебное пособие для студентов вузов Ташкент ТашПИ, 1989-г.
16. А.Қ.Қодилов, А.М.Турсунов. Iqtisodiyot nazariyasidan atamalar va tushunchalar. Toshkent 2000-y.
17. Кукин П.П. и др «Безопасность жизнедеятельности. Безопасность технологических процессов и производств (охрана труда)» Учебное пособие для студентов ВУЗов, техникумов и колледжей. Изд «В сшая школа»1999